



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 450 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlolova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
Rashidova Gulnoza G'ulomovna	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
Abduraximov Asror Sultonali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
Alimov Asadulla Urokbayevich	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
Alimova Umida Jumaboy qizi	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
Islomova Xafiza Azamatovna	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
Kozimova Nargiza Istam qizi	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvlovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'analarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	
Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish omili sifatida	356
Abduhalimova Nigora	
O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	359
Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi	
Коммуникативная компетентность и культура общения преподавателей начальных классов	364
Арысланбаева Анора Бердаховна	
Проблемы методической подготовки учителей в развитие дискурсивной компетенции по РКИ у учащихся уровня В1 средних общеобразовательных школ Узбекистана	366
Набиева Зарнигор Муминжон кизи	
"Tarbiya" darslari orqali o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish.....	369
Atamuradov Xasan Yuldoshevich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'limga tayyorgarligi: pedagogik va psixologik asoslari	374
Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi	
Tajriba metodlari orqali maktab o'quvchilarida tabiat hodisalarini bashorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	378
Baxtiyor Imanov, Begali Xoliqnazarov	
Bo'lajak pedagoglarning tashkillashtiruvchi-boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	384
Japparbergenova Indira Bayramovna	
Integrativ yondashuv asosida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish metodikasi.....	387
Jumanov Muratbay Arepbaevich, Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo'llash imkoniyatlari.....	393
Kadirov Tulkin Baxridinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatning noodatiy usullarini o'rgatish metodikasi.....	397
Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik tushunchasini ilmiy-pedagogik asoslash masalalari.....	406
Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna	



So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasining bosqichlari va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish	410
<i>Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Ochilova Mehrubon Suratovna</i>	
Dermatovenerologiya fanini casc (Critisize, Analyze, Summarize, Conclude) modeli orqali o'qitish va uning talabalar klinik kompetentligini oshirishdagi o'rni	415
<i>Po'latov Boburbek Ta'lat o'g'li</i>	
Sport faoliyatida stress holatini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	419
<i>Ruzmatova Nigina Shotilla qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	422
<i>Uchqunova Adiba Roziq qizi</i>	
7-sinf adabiyot darslarida nutqni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tahlili.....	427
<i>Umurova Farangiz Askarboy qizi</i>	
O'zbek tilida fe'l birikmalarining pragmatik funksiyalari va ularning ingliz tili bilan qiyosi	430
<i>Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	433
<i>Zayniddinova Mahzuna Baxtiyorovna</i>	
Фольклор и время: формирование речевых навыков у детей начальной школы	439
<i>Ниязова Хилола</i>	
Xalq o'yinlari – jismoniy va ma'naviy tafakkur omili	443
<i>Turg'unoy Ahmadjonovna Egamberdiyeva, Ergashoy Valijonova Salimjon qizi</i>	
Использование проектной деятельности для формирования языковой компетенции	446
<i>Чаршамова Мехрийбан Уразбаевна</i>	



“TARBIYA” DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Atamuradov Xasan Yuldoshevich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti,
maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda “Tarbiya” fanini o'qitish orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirish muammolari, vazifalar va yechimlar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy bilim, savodxonlik, ko'nikma, malaka, dars, darslik, multimediya, targ'ibot, o'quv materiali, o'quv topshiriqlari, kompetensiya, vazifalar.

Abstract: The article presents the problems, tasks, and solutions related to developing students' legal literacy through teaching the subject “Education.” It also provides proposals and recommendations for addressing these challenges and defines the tasks required to foster legal literacy among learners.

Key words: legal knowledge, literacy, skills, competence, lesson, textbook, multimedia, promotion, learning material, learning tasks, competencies, tasks.

Аннотация: В статье изложены проблемы, задачи и пути решения, связанные с развитием правовой грамотности у учащихся посредством преподавания предмета “Воспитание”. Также представлены предложения и рекомендации по их устранению, а также определены задачи, необходимые для формирования правовой грамотности у школьников.

Ключевые слова: правовые знания, грамотность, навыки, умения, урок, учебник, мультимедиа, пропаганда, учебный материал, учебные задания, компетенции, задачи.

KIRISH

Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish insonlarning tafakkurini o'zgartirish, huquqiy bilimini oshirish va huquqiy savodxon qilish orqali, pirovard maqsad – huquqiy madaniyatni shakllantirish asosida amalga oshadi. Bunda turli yo'llardan foydalanish mumkin, jumladan targ'ibot, tashviqot, ilmiy tadqiqot, qonunchilikni takomillashtirish va eng asosiysi, ta'limni rivojlantirish orqali huquqiy kompetensiyani rivojlantirishga erishish mumkin. Bu borada “Tarbiya” fanining o'rni beqiyosdir. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.” Ma'lumki, “Tarbiya” fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020–2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Tarbiya fani uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni takomillashtirishni maqsad qilib qo'ygan.

“Tarbiya” fanini o'qitishda didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktika – ta'lim nazariyasi hisoblanadi. Didaktik o'yinlar esa o'quvchilarning ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini jamlashga yordam beradi, shuningdek, xotirani takomillashtiradi. Didaktik o'yin jarayonida o'quvchilar o'zlari sezmagan holda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.¹

¹ Pirnazarova A. Tarbiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlar//Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.



Tarbiya fani asosida o'quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish uchun quyidagi mavzular darsliklarga kiritilgan:

- Rostgo'ylik va burchni his qilib yashash;
- Adolat – hayot haqiqati;
- Xatti-harakat qanday bo'lsa, oqibat ham shunday bo'ladi;
- Rostgo'ylik va halollik;
- Ishonchli va ishonchsiz axborotlar.²

Har bir mashg'ulot uchun mazkur tushunchalarni izohlash maqsadida matn va matn mazmunini anglashga yordam beruvchi o'quv topshiriqlar keltirilgan. Masalan, rostgo'ylik haqidagi matndan so'ng quyidagi savollar beriladi:

1. Rostgo'ylik nima?
2. Said nega do'stlarining gapiga quloq solmadi?
3. Said kimga nisbatan rostgo'ylik qildi, o'ziga yoki o'zgalarga?
4. Siz bunday vaziyatda nima qilgan bo'lardingiz?³

Haqiqatdan ham, yosh avlod ongida nima yaxshi, nima yomon, nima mumkin va nima mumkin emasligini, huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini odob-axloq normalari asosida tushuntirib borish hamda Bosh qomusimizdagi eng muhim tamoyillarni sodda tilda bolaligidan o'rgatib borish kelajakda o'z samarasini beradi.

Targ'ibot orqali ham huquqiy savodxonlikni rivojlantirish mumkin. Jumladan, fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim. Shu bois milliy media makonda huquqiy mavzulardagi ruknlarga e'tiborni yanada kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televidenie va radio eshittirishlarida tushuntirib borish zarur. Ushbu yo'nalishda ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirishga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddaodir. Biroq ta'lim orqali buni amalga oshirish, xususan, fanlararo integratsiya asosida, jumladan "Tarbiya" fanini o'qitish mobaynida o'quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishga erishish mumkin. Tarbiya darslarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, jumladan, huquqiy bilim va malakalarini oshirishga alohida e'tibor beriladi. Masalan, "Men fuqaroman" ruknida quyidagi matn berilgan:

Harakat va uning natijasi

Inson har kuni erta tongda uyg'onadi, badantarbiya qiladi, yuvinadi, nonushta qiladi va o'qish yoki ishga ketadi. Bunday tartibli harakat insonni muvaffaqiyat sari yetaklaydi. Shuningdek, harakatlar so'zlar, imo-ishoralar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Mardonavor harakatlar orqali insonlar qahramonlik ko'rsatishadi. Jamiyat uchun astoydil qilgan har bir ezgu amal qahramonlik hisoblanadi. Matn bilan ishlash uchun esa quyidagicha savol va topshiriqlar taqdim etilgan:

1. Qanday harakatlar imo-ishoralar orqali ifodalanadi?
2. Qanday harakatlar qahramonlik hisoblanadi?
3. Sizningcha, qanday xislatli insonlar qahramonlik ko'rsata oladilar?

Mana shunday ma'lumotlar orqali o'quvchilarda sekin-asta xatti-harakatlarga mas'uliyat va javobgarlik hissini shakllantirib borish mumkin. Bundan tashqari, umumta'lim maktablarida ham "Tarbiya" fani orqali o'quvchilar huquqiy savodxonligi oshirib borilmoqda. Xususan, 7-sinf "Tarbiya" fani darsligida quyidagi mavzular ham kiritilgan:

- Biz o'z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz;
- Insonning huquq va majburiyatlari;

2 M. Quronov va b. Tarbiya, 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 112 b.

3 M. Quronov va b. Tarbiya, 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 11- b.



- Ona tabiatni asrash – bizning burchimiz;
- Har bir inson hurmatga loyiq;
- Jonivorlarga g'amxo'rlik qilish.

Mazkur darslikning “Inson huquq va majburiyatlari” rukni ayniqsa huquqiy savodxonlikka katta hissa qo'shadi, o'quvchilar mazkur mashg'ulotlar asosida o'z huquq va burchlarini taniydi. Sayyoramizda tashqi qiyofasi (rangi, ko'zi, sochi, tana tuzilishi, mashg'ulotlari) bilan farq qiluvchi turli xalq va millat vakillari yashaydi. Ushbu farqlardan qat'i nazar, har bir inson o'zi uchun eng yaxshisiga intilishi, hayoti va ijodi uchun qulay sharoitni tanlashi, yaxshi ta'lim va sifatli tibbiy yordam olishni xohlaydi. Huquq – bu davlat tomonidan berilgan, biz foydalanishimiz mumkin bo'lgan imkoniyat. Huquq – bu biz bildirishimiz mumkin bo'lgan talab. Huquqlar davlat tomonidan belgilanadi. Har bir inson bajarishi zarur bo'lgan majburiyatlarga ega. Ularga bolalar ham, kattalar ham birdek amal qilishi shart. Har bir jamiyatda qonunlar mavjud. Qonun – bu odamlar, tashkilotlar, davlat va boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan xulq-atvor qoidalari yoki normalari to'plami. Davlatning asosiy qonuni Konstitutsiya deb ataladi. Mamlakatimizda huquq va majburiyatlar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan.

Davlatimiz Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan ayrim majburiyatlar keltirilgan:

- Qonunlarni, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.
- Tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab-asrash.

Mazkur matn bilan ishlash, uning mohiyatini tushunib olish uchun quyidagi o'quv topshiriqlari berilgan:

1. 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan bola huquqlariga bag'ishlangan hujjat qanday ataladi?
2. Bola qanday huquqlarga ega?
3. Bola huquqlarini himoya qilishda qanday xalqaro tashkilotlar ishtirok etadi?

Darslik materiallaridan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirishda quyidagi o'quv materiallaridan ham foydalanishi maqsadga muvofiqdir: “Tarbiya” fani asosida o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish maqsadida quyidagi yondashuvlar taklif qilindi: 5-sinf uchun “Adolat” – adolat nima ekanligini; adolat qanday bo'lishini; nima uchun adolatli bo'lish kerakligini bilib olasiz.

Dars lug'ati: adolat, tenghuquqlilik, taqsimlash, qilmish-qidirmish, odillik.

1. Siz do'stingizning qaysi harakatini noto'g'ri deb hisoblaysiz?
2. Sizga qiziqarli kitoblar berilib, uni sinfdoshlaringizga teng taqsimlash topshirilsa, qanday yo'l tutasiz?
3. Kitoblarni taqsimlaganingizdan so'ng ayrim do'stlaringiz sizdan xafa bo'lishi mumkin. Buning sababini qanday izohlaysiz?

Jamiyatda insonlar o'rtasida axloqiy va ma'naviy qoidalar mavjud. Huquqiy munosabatlar qonunlarda o'z aksini topgan va davlat tomonidan tartibga solinadi. Axloqiy va ma'naviy qoidalar esa hech qaerda yozilmagan, lekin ular amalda bo'lib, ularga insonlar o'zlari rioya qiladilar va tartibga soladilar. Adolat – insonlar xatti-harakatlarini ezgulik va yovuzlik, yaxshi yoki yomon oqibatlarga olib kelish nuqtai nazaridan baholash va shunga qarab jazolash yoki mukofotlash demakdir. Har bir harakat, xoh u yaxshi bo'lsin, xoh yomon, albatta baholanishi lozim.

Axloq nuqtai nazaridan adolatli munosabatlarning misollari bulardir: ezgulik uchun ezgulik bilan javob berish lozim. Yaxshi so'zlarga minnatdorchilik bildirish joiz. Insonni nohaq xafa qilish yoki haqorat qilganlik uchun kechirim so'rash kerak. Yordam berilganda javoban minnatdorchilik bildirib, ko'maklashish ham adolatdandir. Adolat insonlarning o'zaro munosabatlarida va jamiyatda asoslidir. Adolat har bir insonning xatti-harakatlari va ular uchun oladigan badalini belgilab beradi, ya'ni adolat qilmish va uning uchun olinadigan mukofot yoki jazo o'rtasida muvofiqlik bo'lishini ta'minlaydi. Adolat – bu insonlarga bo'lgan to'g'ri va haqqoniy munosabatdir. Adolatli inson o'zi va o'z manfaatlarini ko'zlamasdan, foyda olish yoki olmasligiga qaramasdan, adolatli hukmni qabul qiladi. Adolatli inson doimo vijdonan ish tutadi, qanday bo'lmasin, doimo haqiqatni hisobga oladi, u achchiq bo'lsa-da, baribir undan voz kechmaydi. Adolatli bo'lish – mas'uliyatli bo'lish, o'z xatti-harakatlari va qilmishlari uchun javob berishga tayyor bo'lishdir.





1-topshiriq.

1. O'ylab ko'ring va sizga adolatli qarorni qabul qilishga nima yordam berishini tanlang.
2. Siz tanlaganingiz adolatli qaror qabul qilishingizga qanday yordam berishini ayting.
 - haqiqatgo'ylik, to'g'rilik;
 - sezgir, hamdard bo'lish;
 - yaxshilik va rahm-shafqat;
 - qonunlarni va jamiyatlardagi axloqiy qoidalarni bilish;
 - ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi farqni bilish;
 - yolg'on va adolatsizlikka murosasiz bo'lish.

2-topshiriq: "Biz apelsinni bo'layotgan edik. Biz ko'pmiz, apelsin esa bitta": adolatli bo'lish mumkinmi? Besh o'rtoq – Erkin, Akmal, Sardor, Bobur va Sherzod apelsin sotib olmoqchi bo'ldilar. Sherzodning puli yo'q ekan, chunki uning 3 ukasi va bir singlisi bor. Bobur esa pulini uyda unutibdi. Shuning uchun Erkin, Akmal va Sardor apelsin uchun teppa-teng to'ladilar. Endi apelsinni qanday bo'lish mumkin? O'z javobingizni asoslab bering.

3-topshiriq: Rasmlarga qarang. Qaysi holatda "barchaga teng", qaysi holatda esa "kimga ko'proq kerak" tamoyiliga rioya qilingan? Qaysi holat adolatli? Qaysi biri adolat?



Adolat zamonaviy jamiyatning eng muhim axloqiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Adolat – bu nafaqat inson va jamiyat o'zaro munosabatlarida doimo intilgan idealdir, adolatga davlat va sud tizimlari intilgan idealdir.

4-topshiriq: Quyidagi hikmatli fikrlarni o'qib, tushunganingizni aytib bering. Qaysi fikr ko'proq ma'qul keldi, nega aynan shu fikrni tanlaganingizni yozing.

"Bizning ustuvorligimiz – qonun va adolatdir, jinoyat uchun jazo muqarrar bo'lishi lozim ... sudyalarning ongida faqatgina bitta maqsad – adolat, nutqlarida – haqiqat, ko'nglida – soflik bo'lishi lozim." (Sh. M. Mirziyoyev)
"Adolat – davlat va dono hukmdorlar ishlarining asosidir." (Amir Temur)
"Kimning yuragi adolatli bo'lsa, o'sha baxtlidir!" (Firdavsiy)
"Adolatli bo'lganga ehtiyojmand bo'lmaslik uchun, o'zing adolatli bo'lg'in." (Unsur al-Ma'aliy)
"Har bir davlatning asosi va har qanday mamlakatning fundamenti adolat va odil hukmga asoslanadi." (As-Samarqandiy)
"Insonparvar bo'lmasdan, adolatli bo'lish mumkin emas." (L. Vovenarg)

Qadimgi yunon mifologiyasida odil hukm, adolat, qonun va tartibning ifodasi – Femida xudosi bo'lgan. Uning asosiy belgilari tarozi, qilich va ko'zidagi bog'ich bo'lgan. Tarozi – adolat va me'yorning qadimgi ramzidir. Bu tarozida ezgulik va yovuzlik, ayb va aybsizlik o'lchanadi. Odil hukmning qat'iyatligi va adolatligi qilmishlarni aniq o'lchovni ham nazarda tutadi. Qilich – ma'naviy kuch, qilmishi uchun olinadigan mukofot yoki jazoning ramzidir; Femida qo'llaridagi qilich jazo muqarrarligining ramzidir. Femida qo'lida turgan qilichning ikki tomoni ham o'tkir – chunki qonun nafaqat jazolaydi, balki ogohlantiradi ham.

6-topshiriq: Vaziyatlarning adolatli echimini topishga harakat qiling.

1-holat: Oxirgi paytlarda sizning do'stingiz uy ishini bajarmayapti va uni ko'chirib olish uchun daftaringizni so'rayapti.

2-holat: Do'stingiz sinfdan chopib yurib, gul tuvakni sindirdi va butun aybni boshqa sinfdoshiga ag'dardi.

3-holat: Siz uyda ukangiz bilan qoldingiz, o'ynadingiz va gilamga dog' tushirdingiz.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi muhim yo'nalish va vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish o'qituvchilardan ham mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi. Har bir fan o'qituvchisi huquqiy savodxon ekanini o'quvchi oldida kerakli o'rinlarda namoyon eta olishi katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'quvchilardagi huquqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun darslik materiali bilan cheklanib qolmasdan, har bir o'qituvchi turli huquqiy vaziyatlar, muammoli holatlar, matn va topshiriqlar bazasini shakllantirib olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 14-b.
2. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlar // Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi, 2022. – 77-78-b.
3. Quronov M. va b. Tarbiya, 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 112 b.
4. Quronov M. va b. Tarbiya, 5-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 112 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.